

ISLOM DİNIDA SILAI RAHM MASALASINING AHAMIYATI

Najimova Robiya

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinida silai rahm – ya'ni qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash masalasining ahamiyati yoritilgan. Muallif Qur'oni Karim oyatlari va hadislar asosida silai rahmning diniy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan naqadar muhim ekanini tahlil qiladi. Maqolada silai rahmning lug'aviy va istilohiy ma'nosi izohlanib, uni ado etishning savoblari va tark etish oqibatlari bayon etilgan. Shuningdek, silai rahm orqali jamiyatda mehr-oqibat, birdamlik va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishi ta'kidlangan. Maqola, ayniqsa zamonaviy sharoitda qarindoshlik munosabatlari zaiflashayotgan bir davrda, bu mavzuning dolzarbligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Islom, silai rahm, qarindoshlik aloqalari, Qur'on, hadis, musulmon axloqi, ijtimoiy barqarorlik, mehr-oqibat, din va jamiyat, rizq, umr barakasi.

Islom dini insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, hurmat va ehtiromni asoslardan biri sifatida qaraydi. Ayniqsa, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash – silai rahm – musulmon axloqining ajralmas qismidir. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda individualizm va dunyoviy qadriyatlarning kuchayishi silai rahm kabi muhim ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni zaiflashtirmoqda. Shu bois bu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligini belgilovchi yana bir omil – bu islomiy tarbiya va ma'naviy kamolotda silai rahmning o'rni beqiyosligidir. Bolalarga, yosh avlodga qarindoshlik rishtalarining qadriyat sifatida o'rgatilishi, ularning axloqiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Silai rahmga e'tibor kuchaytirilsa, oilalar mustahkamlanadi, ajralishlar kamayadi, keksalarga hurmat, bolalarga mehr kuchayadi – bu esa barqaror va sog'lom jamiyatning kafolatidir.

Ushbu maqolada Qur'on va Sunnat asosida silai rahmning mohiyati, diniy-axloqiy ahamiyati hamda uni tark etish oqibatlari yoritiladi. Islom dini oilaviy qadriyatlarni, ayniqsa silai rahm, ya'ni qarindosh-urug'lar bilan aloqani mustahkamlashni muqaddas bir burch sifatida ta'riflaydi. Ushbu maqolada silai rahmning Islomdagi o'rni, ahamiyati va uni tark etish oqibatlari haqida so'z yuritamiz. Dinimiz islomda silai rahmga nihoyat darajada katta e'tibor qilingan bo'lib, ko'plab oyat va hadislarda silai rahmning fazilati, ahamiyati va zarurati takror-takror uqtiriladi. Mo'minlarning asosiy sifatlari bayon qilingan oyatlarda ularning qarindosh urug'lar bilan aloqani bog'lashlari haqidagi sifatlariga ham alohida urg'u beriladi. Buning muqobilida esa buzg'unchi bo'lgan qavmlarning yomon sifatlari zikr qilinganda, ularning Alloh buyurgan rishtalarni uzishlari haqida ya'ni silai rahm qilmasliklari haqida xabar beriladi. Albatta, bu bejiz emas. Dinimizning silai rahmga bu qadar yuksak ahamiyat qaratishi uning nechog'li ahamiyatga molik ish ekanidan dalolatdir. Islom dini avvalo, insonlarni poklikka, bir-birlariga yaxshilik qilishlikka buyurib, yovuzlikdan va zulm qilishlikdan qaytaradi. Muborak dinimiz ta'limotida musulmon kishining zimmasiga shariat tomonidan bir qancha xaq-huquqlar yuklatiladi. Ular Alloh taoloning haqqi, so'ng ota-onaniki, ahli ayoli va qavmu-qarindoshlarning haqlaridir. Inson hayotidagi eng muhim yordamlardan biri bu uning yaginlari bilan bolgan munosabatlaridir. Oila va qarindoshlik aloqalari insonga faqat ma'naviy emas, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham baxshida etadi. Hayot muammolarini yengib o'tishda inson ruhiy va ma'naviy rishtalarga tayanadi, bu esa xavfsizlik va ishonch hissini mustahkamlaydi. Shuning uchun o'zaro ahillik va hamjihatlikni ta'minlashda qarindoshlik rishtalari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arab tilidagi “صلة الرحم” (silat ar-rohim) iborasi “rahm” – bachadon (ya'ni qarindoshlik) so'zidan olingan bo'lib, bu atama nasab, yaqinlik, qarindoshlik rishtalarini anglatadi. “Silat” esa “aloqa qilish, bog'lanish” degan ma'noni bildiradi. Demak, “silai rahm” – qarindoshlar bilan bog'lanish, ular bilan do'stona munosabatda bo'lish, yordam ko'rsatish, holidan xabar olish kabi ezgu amallarni bildiradi. Rahm so'zi Qur'oni Karimda uchramasa-da, uning ko'plik “أرحام” shaklida

(“Oli Imron” sura-si 6-oyat, “An’om” surasi 143-oyat, “Ra’d” surasi 8-oyatida) qo‘llanilib kelingan. Bundan tashqari, arab tilidan olingan “الأقرباء” so‘zi – “qarindoshlar” ma’nosini bildirib, “قرب” (“yaqinlik”) o‘zagidan yasalgan. Qur’onda “قرب” so‘zlarini o‘z ichiga olgan boshqa oyatlar mavjud bo‘lib, xususan, “Baqara” surasi 83 va 177-oyat¹, “Niso” surasi 36-oyat, “Sho‘ro” surasi 23-oyatlarida qarindosh-urug‘ bilan bog‘liq vazifalar bayoni keltirilgan. Niso surasi 36-oyatda Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar. Ota-onaga, qarindoshga, yetimlarga, miskinlarga, yaqin qo‘shniga, yon qo‘shniga, yondagi sohibga, yo‘qsil yo‘lchiga va qo‘lingizda mulk bo‘lganlarga yaxshilik qilinglar. Albatta, Alloh dimog‘dor va maqtanchoq kimsa(la)ni suymaz.

Islom manbalarida silai rahm tushunchasi ko‘pincha “Birr” (بِرّ) tushunchasi bilan bog‘lanadi, arab tilida “بِرّ” so‘zi “yaxshilik”, “mehribonlik”, “muhabbat”, “taqvodorlik”, “muhtojlarga yordam”, “xayr-saxovat”, “ehson, xayriya” degan ma’nolarni anglatadi. “Birr” odamlarga yaxshi axloqlar ila muomalada bo‘lish, ularga yaxshilik qilish, rahm ko‘rsatish va sodiq bo‘lish ma’nosida qo‘llanilib, ulamolar gunohlardan xolis bo‘lgan doimiy amalga ham “birr” deyiladi, – deb aytganlar².

Shuni yaxshi bilish kerakki, ota-ona, aka-uka, opa-singil kabi qon-qarindoshlarga yaxshilik qilish silai rahmning eng avvalgi pog‘onasida turadi. Zero, ota-ona va aka-ukalar kishi uchun eng yaqin qarindoshlar hisoblanadilar. Ota-onalarga yaxshilik qilish bir tomondan silai rahm jihatidan, ikkinchi tomondan esa Qur’oni Karim va hadisi shariflarda alohida buyurilgan “birru-l-volidayn” ya’ni “ota-onaga yaxshilik qilish” jihatidan matlub amal hisoblanadi. Gohida kishi qarindosh-urug‘larining ayrimlari bilan qaysidir tushunmovchilik tufayli urushib qolishi, o‘rtalarida sovuqchilik paydo bo‘lib qolishi mumkin. Lekin, bu holatlar ham silai rahmni uzishga sabab bo‘lmasligi kerak. Garchi qarindoshingiz sizni nohaq xafa qilgan bo‘lsa ham, boringki, u siz bilan aloqani uzgan bo‘lsa ham siz uzmasligingiz lozim bo‘ladi.

¹ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karimning o‘zbekcha ma’nolar tarjimai “O‘zbekiston musulmonlari idorasi” T: Movarounahr nashriyoti, 2014 B 11

² Agzamova Muhabbatxon. Islom ma’rifati. – Toshkent. Muharrir nashriyoti.2025. – B. 6.

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda kelishicha, bir kuni bir kishi Nabiyy (s.a.v.) huzuriga kelib: “Yo Rasulalloh, mening shunday qarindoshlarim borki, men ular bilan aloqa qilaman, ular esa men bilan aloqani uzadilar, men ularga yaxshilik qilaman, ular esa menga yomonlik qaytaradilar, ular menga johillik qiladilar, men esa ularga halimlik, yumshoqlik qilaman”, - deya nodon qarindoshlaridan shikoyat qildi. Shunda Nabiyy (s.a.v.) shunday dedilar: “Agar ish sen aytgandek bo‘lsa, unda bilginki, sen ularga qaynoq cho‘g‘ni yedirayotgan ekansan. (Ya’ni xafa bo‘lma, sen ulardan mag‘lub emas, balki, g‘olib bo‘layapsan. Zohirdan ular senga zulm o‘tkazyaptilaru, ammo yutqazmoqdalar). Modomiki, sen ular bilan shunday muomalada ekansan, doimo Alloh tomonidan yuborilgan bir yordamchi (farishta) sen bilan birga bo‘lur”.

Demak, silai rahm yaxshilikka yaxshilik bilan, bordi-keldiga borish bilan javob qaytarish emas, balki, yomonlik ko‘rilsa ham, jafo ko‘rilsa ham qarindoshlarga yaxshilik qilish, e’tiborsizlik qilayotgan qarindoshga ham e’tibor bo‘lar ekan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) silai rahmga juda katta e’tibor berganlar va bu amalni imon bilan bog‘laganlar: “Kim Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo‘lsa, qarindosh-urug‘lar bilan aloqani uzmasin.”(Imom Buxoriy rivoyati)

Yana bir hadisda shunday marhamat qiladilar: “Silai rahm (qarindoshlar bilan aloqani yaxshilash) umrni uzaytiradi va rizqni ziyoda qiladi.” “Kim Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo‘lsa, qarindosh-urug‘lar bilan aloqani uzmasin.”(Imom Buxoriy rivoyati) Yana bir hadisda shunday marhamat qiladilar: “Silai rahm (qarindoshlar bilan aloqani yaxshilash) umrni uzaytiradi va rizqni ziyoda qiladi.”(Imom Muslim rivoyati) Bu hadislar silai rahmning inson hayoti va rizqi ustidagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. (Imom Muslim rivoyati) Bu hadislar silai rahmning inson hayoti va rizqi ustidagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Insonlarning taqdiri, hayot kechirishligini yaratganning o‘zi belgilaydi. Ammo odamlar bir-birining amaliga, boyligiga, kiyinishiga qarab turib, muomala qilish johillikdir. Aqilli musulmon odam barchaga birdek muomalada bo‘ladi,

birovni kamsitmaydi, qarindoshlari, yaqinlari oldidagi haq-huquklarini his qiladi va ularni to'liq ado etadi. Barchaga qo'lidan kelgancha yaxshilik qiladi, shohu gado bilan bir xil so'zlashadi. Axir islom dini bizni doimo ahil-totuv, birdam bo'lib yashashga, bir-birimizga mehr-oqibatli va muruvvatli bo'lishligimizga chorlaydi. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qilib aytadi: "Ey iymon keltirganlar, mo'minlar, bir-birlaringiz uchun aka-ukadirsizlar"³.

Payg'ambar (s.a.v): "Qarindoshlari bilan aloqani uzgan kishi jannatga kirmaydi", deya ta'kildaganlar. Inson uchun silai rahm qilishga eng haqli kishi uning yaqinlari ya'ni oilasi, ota-onasidir. Undan keyin aka-uka, opa-singil, ota va onaning qarindonshari ham silai rahm qilinishiga haqli bo'lgan kishilardir⁴.

"Silai rahm – bu qarindoshlar bilan yaxshilikda bo'lish, ularga yordam berish, ularni ziyorat qilish, holidan xabar olish, muhtoj bo'lsa, qo'llab-quvvatlash, xafa qilgan bo'lsa ham aloqani uzmaslikdir." (Sharh Muslim, Imom Navaviy sharhi) Imom Navaviy silai rahmni faqatgina ziyorat qilish yoki telefon qilish bilangina cheklamaydi, balki mol bilan, so'z bilan va amalda yordam berishni ham unga kiritadi. Tafsirga ko'ra, bu oyatda Alloh taolo silai rahmni uzishni katta gunoh deb sanaydi. Ulamolar bu oyatni "silai rahmni uzgan kishi Allohning la'natiga va g'azabiga uchraydi" deb talqin qilishgan (Zamaxshariy, Tafsir al-Kashshof).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, islom dini qarindoshlar bilan yaxshi munosabat va aloqani saqlashni nihoyatda muhim amr qilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ko'p hadislarda qarindoshlar bilan mehr-oqibatli bo'lish, ularga yomonlik qilmaslik, ular uchun yaxshilik qilish tavsiya qilingan. Qarindoshlar bilan aloqani uzish nafaqat odamlar orasida nizolar va dushmanliklarni keltirib chiqaradi, Alloh taolo qarindoshlar bilan munosabatni saqlagan, ularga yaxshilik qilgan bandalarni yaxshi ko'radi va ularga ko'p savob beradi. Aksincha, silat ar-rahmni uzgan, qarindoshlariga yomonlik qilgan

³ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyot-matba'asi, 2023. –B. 109.

⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2021). Odoblar xazinasi // Imom Buxoriy. Adabul Mufrad. asariga sharh (J. 1). Toshkent: Hilol-Nashr

www.tadqiqotlar.uz

kimsalarga qattiq tanbeh beradi. Shunday qilib, qarindoshlar bilan aloqani saqlash nafaqat jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi, balki shaxsiy ruhiy tinchlik va Allohning roziligini olishning muhim kalitidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur (2009). Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent: TIU.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Yaxshilik va silai rahm // (J. 2). Toshkent: Hilol-Nashr. 2021.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2021). Odoblar xazinasi // Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad asariga sharh (J. 1). – Toshkent: Hilol-Nashr